


Nilufar Hojiyeva

**QALBIM
NAFASI**

(She'rlar)




Toshkent,
«Istiqlol» – 2007

Surxondaryoning Sherobod shahrida tavallud topgan yosh qalamkash o'zining «Qalbim nafasi» nomli ushbu kitobida ona tabiatni, jonajon Vatanimizni va inson tuyg'ularining oniy kechinmalarini she'rlari orqali talqin qiladi.

«Qalbim nafasi» Nilufar Hojiyevaning ikkinchi kitobidir.

Uning ushbu to'plami ham siz aziz o'quvchilarga manzur bo'ladi, degan umiddamiz.

HO 34245
Og1



MUSTAQILLIK QIZIMAN

Bugun istiqlolimiz
O'n oltidan o'tgan kun,
Ikkimiz ham tengdoshmiz,
Bugun men tug'ilgan kun.
Yurtimizning jamoli
Yayrab-yashnab kelmoqda,
Farovon obod yurtda
Tinchlik hukm surmoqda.
Buning uchun Oллоhga
Aytamiz shukronalar,
Mustaqillik qizi deb
Dildan qvvnar onalar.
Bizlar bunday kunlarga
Ming bor shukr aytgaymiz,
Yurtga sodiq farzandmiz,
Hur voyaga yetgaymiz.
Vatan deb jon berguvchi
Xalqsevarlar iziman,
Mustaqillik qiziman.

DADAMGA

*(Dadam marhum
Husan Xojievning xotirasiga bag'ishlanadi)*

Kecha boqqa borib,
Uzdim gullar sarasin.
Dadajonimni eslab,
Tingladim gullar sasin.
Tongda onamlar bilan,
Bordik dadam boshiga,
Koz yoshimla qo'ydim men
Gulni qabr toshiga.
So'ng biroz o'yga cho'mdim,
Ko'zlarimga qalqdi yosh.
Dardli yurak faryodimga
Dunyo qanday berdi dosh.
Bevaqt kelgan o'sha ajal
Olib ketdi dadamni.
Bu dunyoga yolg'iz tashlab
Besh farzand-la onamni.
Dadajon sizni hamon
Sog'inganda yig'layman,
Otasizman-omadsizman
Deya bag'rim tig'layman.

Bir kam dunyo deydilar,
Bir kam dunyo asli shu.
Olamda kemptik qalblar
Yaqinidan ayro-ku.
Bu Ollohning irodasi.
Qarshi chiqish gunohdir.
Kemptik qalblar o'kinmangiz,
Olloh bizga panohdir.
Kelish-ketish azaliydir,
Bu taqdir qoidasi.
Sizga aytgan so'zlarim
Murg'ak qalbim nolasi.

QALBIM NAFASI

Qayerga boqmayin bahor nafasi,
Barq urar daraxtlar, gullar havasi.
Qiyg'os gullayotgan bodommi asli,
Yoki mening masrur qalbim nafasi.

Kurtak yozgan orzularim pinhon gullari,
Shukur, Olloh bugun meni o'zi qo'lladi.
Endi she'rim to'plam bo'lib dildan joy olgay,
Har o'qigan ko'ngillarga quvonchlar solgay.

YOZGI TA'TIL

Yozning ayni boshida
Bizga ta'til berishdi,
Men kabi tengdoshlarim
Juda xursand bo'lishdi.

Yozda dam olmoq uchun
Oromgohga bordik biz,
U yerda barcha bola
Do'stdir, hatto, o'g'il-qiz.

Ta'til shu maroq bilan
Bir zumda o'tdi-ketdi,
Ammo ta'tildan keyin
Maktab vaqti ham yetdi.

Biz shu ta'tildan keyin
Yana bir yosh ulg'aydik,
Ulg'ayish zinasiga
Yana qadam qo'ygandik.

ORZU-HAVAS YO'LIDA...

Bir kun kelib, orzusi ushalgan odam
Baxtiyor quvnagay bu olam aro.
Gar buning aksidir, udir notavon,
Dunyoda baxtsiz-u va baxti qaro...

Orzuga intilib yashagan inson —
Go'yoki quyoshga talpingan zarra.
Orzusin kuylagay baralla, pinhon,
Yashashdan maqsad shu birinchi galda...

BAHOR

Xuddi kelinchak misol,
Oppoq gulga yastanib,
Qani endi kelaqol,
Sochpopuklaring taqib.

Sen kelganingda olam
O'zgacha yosharadi,
Daraxtlar taqib olgan
Oppoq gul yarashadi.

Har yoqda ko'klam isi,
Barcha yerda navbahor,
Xush kelding o'lkamizga
Xush kelibsan gul bahor!..

KUZ

Mana, o'lkamizga kuz fasli keldi,
Xazonlarni uchirib, shamol ham yeldi.
Suvlar tiniqlashib soviy boshladi,
Darxtlar barglarin to'kib tashladi...

Kun qisqara boshlar lahzalar, onlar,
Yo'laklarda to'dalangan xazonlar.
Mevalar g'arq pishib kuzda yetilar,
Bu rizqimiz dasturxonga tortilar.

Kuz faslin chindan ham sevar xalqimiz,
"Yer haydasang kuz hayda" der, naqlimiz.
Fasllarning bari totli kelsaydi,
Kuzning go'zalligin barcha bilsaydi...

KO'ZLAR ALDAMCHI

Daraxtga boqaman qiyg'os gullagan,
G'uj-G'uj gullar ifori bog'larni tutar.
Uning bu islari dimog' qitiqlar,
Ammo bo'y aldamchi gullar to'kilar.

Xafsalasizlarcha soyga boqaman,
To'lib, toshib, mavj urib, jo'shib oqar...
Uning bu jo'shqinligi qirg'oqqa yoqar,
Ammo soy aldamchi, suv qurib qolar.

Ko'zim chirt yumgancha boqmayman har yon,
Qorong'ulik tutar tegramni bir zum.
Lekin qorong'ulik, yorug'lik yolg'on,
Mangulik oldida yolg'izman o'zim...

USTOZLARGA MING RAHMATI!..

**Qalb jo'shqinlik his etadi, ko'ngil sizni alqasa,
Mehringizni ziyosidan quyosh ko'kda balqisa.
Ishonchingiz oqlasak, ko'ngil bo'lar nurafshon,
Bayramingiz bilan ustoz sizga bo'lsin sharaf-shon.**

**Kichik jussangizga ming tashvish olib,
O'qitdingiz shogirdlarni nur yo'lga solib.
Bugun ular sizga ming bor ta'zim qilmoqda,
Mashaqqatli xizmatangiz qadrin bilmoqda.**

**Sizni bergan ta'limingiz erta bizga asqotgay,
Har bir o'git so'zingizda minglab ma'nolar yotgay,
Bizlarni deb goh kuyunib goh chekdingiz zaxmat,
Aziz ustoz sizga deymiz chin dildan rahmat.**

O'ZBEKISTON BOLALARIGA

Bu kun sizning bayramingiz,
Quv nab o'ynang bolalar,
Go'yo bu yurt tog' bo'lsa,
Siz undagi lolalar.
Sizning bu bayram bilan
Qutlar ota-onalar,
Omon bo'ling deb sizni
Duo qilar bobolar.
Balki sizlar bo'larsiz
Mirzo Bobur, Ulug'bek,
Nodira-yu, Uvaysiy,
Ibn Sino, Temurbek.
Shuning uchun do'stlarim,
O'qib o'rganmoq kerak,
Yoshlikning har vaqtini
Unga sarflamoq kerak.

ONASAN

Bugun senga bag'ishlab
Qasida bitdim,
Mana bugun chinakkam
Qadringga yetdim.

Onajon olovli
Mehringni tuyib,
Dilda pinhon kalomim
She'rim-la bitdim.

Onajon oq sutingga
Doim rozi bo'l,
Barhayot sen-la kuylay
Mening so'zim bo'l.

Bu yorug' olam aro
Sen yagonamsan,
Dunyoda eng mo'tabar
Aziz onasan!..

SHE'RIYAT

Oллоhim nasib etsang
Ko'p she'rlar yozmoqchiman,
Zulfiya xonim kabi
Shoira bo'lmohchiman.

Mayli sening yo'lingda
Doim sozlay sozimni,
Sening shaningni asrab
Yozgayman har so'zimni.

Faqat menga nasib et
Shoirlik unvonini,
Asragayman ko'zimday,
Shoiralik nomini.

BOYCHECHAK

Salom xoy go'zal bahor,
Salom qir-u adirlar.
Salom kurtag-u g'uncha,
Chuchmoma-yu gulg'uncha.

Erta bahordan turib
Yuz qo'limni yuvgayman,
Bahorni qarshi olgan
Men boychechak bo'lgayman.

G'unchalarim uyg'otib
So'ylarman unga ertak,
Ungacha uyg'onadi
Daraxtlardagi kurtak.

Qor tagidan chiqarman
Boshim egik, mo'ralab,
Bahorga bermay navbat
Qor yog'adi bo'ralab.

Yana bahor kelganda
Men kulib uyg'ongayman,
Navro'z bayrami deya
Men takror quvongayman.

G'ANIMAT ONLAR!

O'tib ketar ekan maktab davrimiz,
Sinfdoşlar bilan o'tgan davramiz.
Darslardan zerikib qolganda goho,
Tanaffus deyishib kutgan pallamiz.

Qator o'tirardik yigit, qiz bo'lib,
Bu o'tgan kunimiz juda bebaho.
O'qishning so'ng kuni yuraklar to'lib,
Bo'g'izdan chiqadi so'nggi bir nido...

Bu nido ham bitta "So'nggi qo'ng'iroq",
So'nggi qo'ng'iroqmas, hijronli kun bu,
Chunki o'n bir yillik qadrdonlarni,
Balog'atga kuzatib qo'yguvchidir u!

YOSHLIK

Yoshlik!
Bu nima?
Umrning g'animat dami
Ta'rifga tillar ham ojiz
She'rlar tug'ilur bu haqda cheksiz
Ammo bu dam taqlidsiz g'azal
Unda bo'lgan har lahza go'zal
Bu davrda behuda yurganlar qancha
Bu damlarni sevib suyganlar qancha
Bu davrni suygan shoirlar so'zlar
"Yoshlik-beboshlik" deb she'rlar yozishar
Lekin men bu haqda so'zlashim qiyin
Umr daftarining sarlavhasi u
Bu daftarining so'zlari go'zal
Yoshlikning har lahzasi go'zal
Hoy, do'stim, qalbingga quloq sol
Bu yoshliging misoli suvdayin oqar
Ammo undagi go'zal onlaring
Bir umr xotirangda abadiy qolar.

VATAN

Ey vatan sensan mening
Bu dunyoda suyganim.
Bag'ringda o'sish bilan
Ilk bor baxtni tuyganim.

Vatan sensan ona yurtim,
Ona xalqim o'zingsan.
O'qiyotgan maktabim,
Yashayotgan uyimsan.

Sensan men sevgan shahar,
Sherobodim vatanim.
Alpomishlar o'tgan yurt,
Hur, obodim, vatanim.

TUNGI OSOYISHTALIK

Ko'kda oy yarqirab sochar edi nur,
Yulduzlar charaqlab turardi hamon,
Hamma uyquda-yu, yolg'iz men uyg'oq,
Tunning og'ushida shubha va gumon.
Derazam tagidan oqardi suvlar,
Suvning shildirashi bilinmasdi hech.
Darxt taglarida xazonlar yotar,
Tun esa juda ham, sehrli, notinch.
Bu sirli sehriga oshno edim men,
Termulib o'tirdim yorishguncha tun.

ONA SURXONIM

Mayin shabada esar
Tog'-adirlar qo'ynida,
Soyda zilol suv oqar
O't-o'lanlar qo'ynida.

Har tong go'yo shu torlar
Mayin kuyiga chorlar,
Budir aziz makonim
Mening ona Surxonim.

AVLODLAR DAVONI

Bu soʻzning ham tagida
Ming-ming maʼno yotadi,
Bu barcha yosh qariga
Teng, birdayin yoqadi.
Tinchlik boʻlsa bolalar
Erkin oʻynab kuladi,
Barcha tinchliksevarga
Oʻshanda baxt kuladi.
Biz ham tinchlik istaymiz,
Erkin oʻqib, oʻrganib.
Yurtga hissa qoʻshgaymiz,
Oʻqib voyaga yetgach.
Ajdodlarimiz umrin
Davomini yashaymiz,
Kelgusi davonlarga
Tinchlik deya oshamiz.

MUNDARIJA

Mustaqillik qiziman.....	3
Dadamga.....	4
Qalbim nafasi.....	6
Yozgi ta'til.....	7
Orzu-havas yo'lida.....	8
Bahor.....	9
Kuz.....	10
Ko'zlar aldamchi.....	11
Ustozlarga ming rahmat!.....	12
O'zbekiston bolalariga.....	13
Onasan!.....	14
She'riyat.....	15
Boychechak.....	16
G'animat onlar!.....	17
Yoshlik.....	18
Vatan.....	19
Tungi osoyishtalik.....	20
Ona Surxonim.....	21
Avlodar davoni.....	22

84(5ŷ)6
H59

Hojiyeva, Nilufar.

Qalbm nafas: (Sherlar) / N. Hojiyeva. — T.: Istiqlol, 2007.
- 246.

ББК 84 (5ŷ)6

Adabiy-badiiy nashr

Nilufar Hojiyeva

**Q A L B I M
N A F A S I**

(She'rlar)

Muharrir: A. Suvonov
Musavvir: S. Po'latov
Sahifalovchi: N. Abdu Rauf

"Istiqlol" nashriyoti. Toshkent sh., Navoiy ko'chasi, 30.
Shartnoma № 29.

Bosishga ruxsat etildi 05.11.2007 y. Bichimi 60x84 1/16.
Bosma tohog'i 1,5. Adadi 500 nusxa.

"Razzoqov O.J." XT bosmaxonasida chop etildi. Navoiy ko'chasi, 30.
Buyurtma № 156.